



---

**MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA TASHQI IQTISODIY  
XAVFSIZLIKNI HUQUQIY TA'MINLASH: MUAMMOLAR VA  
TAKLIFLAR**

Mirgulshanbekov Xiloliddin O'ktamjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Intellektual mulk va axborot texnologiyalari huquqi magistranti

**Annotatsiya:**

ushbu maqolada Markaziy Osiyo davlatlarida tashqi iqtisodiy xavfsizlikni huquqiy ta'minlash masalalari chuqur tahlil qilinadi. Maqola doirasida mintaqa davlatlarining tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy bazasi, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi. Xususan, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston tajribalari solishtirma yondashuv asosida yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** tashqi iqtisodiy xavfsizlik, huquqiy tartibga solish, Markaziy Osiyo, investitsiyalar, eksport-import, bojxona, qonunchilik.

**Аннотация:**

в данной статье проводится глубокий анализ вопросов юридического обеспечения внешнеэкономической безопасности в странах Центральной Азии. В рамках статьи рассматривается правовая база, регулирующая внешнеэкономическую деятельность стран региона, существующие проблемы и предложения по их устранению. Особое внимание уделяется опыту Узбекистана, Казахстана, Кыргызстана, Таджикистана и Туркменистана, представленному с использованием сравнительного подхода.

Ключевые слова: внешнеэкономическая безопасность, правовое регулирование, Центральная Азия, инвестиции, экспорт-импорт, таможня, законодательство.

Annotation: this article provides an in-depth analysis of the issues related to the legal provision of external economic security in the Central Asian countries. The article discusses the legal framework regulating the external economic activities of the



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20<sup>th</sup> June 2025

region's countries, existing problems, and proposals for their resolution. In particular, the experiences of Uzbekistan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, and Turkmenistan are highlighted based on a comparative approach.

Keywords: external economic security, legal regulation, Central Asia, investments, export-import, customs, legislation.

So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy mustaqilligi va barqaror taraqqiyotini ta‘minlashda tashqi iqtisodiy xavfsizlik masalasi dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Mintaqaga kiruvchi O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston singari davlatlar uchun tashqi iqtisodiy omillarga nisbatan barqarorlik nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki siyosiy suverenitet va milliy xavfsizlikni ta‘minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu davlatlar xalqaro savdo, xorijiy investitsiyalar, tashqi qarz, energetika eksporti va moliyaviy oqimlarga bevosita bog‘langan bo‘lib, global iqtisodiy o‘zgarishlar va tashqi tahdidlarga nisbatan zaiflikni keltirib chiqaradi.

Jahon savdo tashkiloti (WTO)<sup>1</sup>, Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF)<sup>2</sup> va Jahon banki (World Bank) tomonidan taqdim etilgan statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, mintaqa mamlakatlarining umumiy yalpi ichki mahsulotida (YAIM) tashqi savdoning ulushi 50–70% atrofida bo‘lib<sup>3</sup>, bu ularni tashqi iqtisodiy omillarga yuqori darajada qaram qilib qo‘yadi. Shu sababli, tashqi iqtisodiy xavfsizlikni huquqiy jihatdan ta‘minlash – ya‘ni davlatlarning iqtisodiy suverenitetini mustahkamlashga xizmat qiluvchi qonunchilik, institutsional mexanizmlar va strategik hujjatlarni yaratish va amalda qo‘llash – Markaziy Osiyo uchun zaruriy ehtiyojdir.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlari bu borada ma‘lum choralarni amalga oshirib kelayotgan bo‘lsa-da, ular orasida huquqiy asoslarning yetarli emasligi, mintaqaviy hamkorlikning sustligi, iqtisodiy shaffoflikning pastligi va xorijiy

<sup>1</sup> <https://www.wto.org/>

<sup>2</sup> <https://www.imf.org/en/Home>

<sup>3</sup> [https://www.weforum.org/stories/2018/07/what-is-the-wto/?gad\\_source=1&gad\\_campaignid=22234048793&gbraid=0AAAAoVy5F7r-xvXVDBnSFeaubjMf1P5k&gclid=Cj0KCQjw2ZfABhDBARIsAHFTxGyxhCnAId0s9WAy9r3f-DuznpDcO50TDD8mxQPsb19bGAqx317uxAlaAq\\_ZEALw\\_wcB](https://www.weforum.org/stories/2018/07/what-is-the-wto/?gad_source=1&gad_campaignid=22234048793&gbraid=0AAAAoVy5F7r-xvXVDBnSFeaubjMf1P5k&gclid=Cj0KCQjw2ZfABhDBARIsAHFTxGyxhCnAId0s9WAy9r3f-DuznpDcO50TDD8mxQPsb19bGAqx317uxAlaAq_ZEALw_wcB)



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: [econferences.com](http://econferences.com)

20<sup>th</sup> June 2025

investitsiyalarni himoya qilishda tizimli muammolar mavjud. Mavjud global iqtisodiy beqarorlik, geosiyosiy raqobat, sanksiyalar, xomashyo narxlarining o'zgaruvchanligi va moliyaviy oqimlarning siyosiylashuvi bu xavfsizlikni ta'minlash zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Shu bois, ushbu maqolada Markaziy Osiyo mamlakatlarida tashqi iqtisodiy xavfsizlikni huquqiy jihatdan ta'minlash borasidagi mavjud yondashuvlar, muammolar, xalqaro tajribalar va ularni bartaraf etish bo'yicha huquqiy takliflar atroflicha tahlil qilinadi. Maqola ilmiy manbalar, xalqaro tashkilotlarning rasmiy hisobotlari va amaliy hujjatlarga asoslanadi hamda mintaqa iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash yo'llarini izlab topishni maqsad qiladi.

Tashqi iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi va uning huquqiy asoslari

Tashqi iqtisodiy xavfsizlik bugungi globallashtirish va iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida har bir davlatning iqtisodiy suvereniteti va barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Bu tushuncha asosan davlatning tashqi iqtisodiy muhitda yuzaga keladigan xavf-xatarlar va tahdidlarga qarshi o'zini himoya qila olish salohiyati, xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi barqarorligi hamda iqtisodiy manfaatlarini ilgari surish imkoniyatini anglatadi. Tashqi iqtisodiy xavfsizlikning o'zi bir nechta tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- ✓ Savdo xavfsizligi – eksport-import faoliyatining barqarorligi va qulay savdo sharoitlarini saqlab qolish;
- ✓ Moliyaviy xavfsizlik – davlatning valyuta siyosati, xalqaro moliyaviy majburiyatlarga qaramlik darajasi va moliyaviy inshootlar barqarorligini ta'minlash;
- ✓ Investitsiya xavfsizligi – xorijiy investitsiyalar oqimini tartibga solish va strategik sohalarda milliy manfaatlarini himoya qilish;
- ✓ Energetik xavfsizlik – energetik resurslar eksporti va importidagi xavfsizlikni ta'minlash;
- ✓ Logistika va tranzit xavfsizligi – mintaqaviy va xalqaro transport yo'llarining barqaror ishlashini nazorat qilish.

Markaziy Osiyo davlatlari – O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston – global iqtisodiy tizimga faol integratsiyalashayotgan davlatlar qatoriga kiradi. Ularning iqtisodiy tizimlari asosan xomashyo eksporti, energetika



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20<sup>th</sup> June 2025

resurslari va chet el investitsiyalariga bog‘liq bo‘lgani sababli, tashqi iqtisodiy xavfsizlik masalasi ayniqsa dolzarb hisoblanadi. Shu sababli, har bir davlat o‘zining huquqiy bazasi orqali tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash choralari ko‘rmoqda.

### 1. Konstitutsiyaviy asoslar

Har bir davlatda konstitutsiya – eng oliy yuridik hujjat sifatida iqtisodiy xavfsizlikning asosiy printsiplarini belgilab beradi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida “Davlat iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashni, iqtisodiyotning muvozanatli rivojlantirishni, mulk huquqining daxlsizligini, raqobatbardosh iqtisodiy muhit yaratilishini kafolatlashini” belgilab o‘tgan<sup>4</sup>. Qozog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasida esa milliy xavfsizlik davlat faoliyatining ustuvor yo‘nalishi sifatida ko‘rsatilgan.

### 2. Maxsus qonunchilik

Tashqi iqtisodiy xavfsizlikning muhim huquqiy poydevori maxsus qonunlar orqali mustahkamlanadi. Jumladan:

- O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni tashqi savdo, eksport-import operatsiyalari, xorijiy investitsiyalar va boshqa tashqi iqtisodiy faoliyat turlarini tartibga soladi<sup>5</sup>;
- “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni (2019) xorijiy va mahalliy investorlar uchun teng huquq va huquqiy kafolatlarni belgilaydi<sup>6</sup>;
- Qozog‘istonda “Milliy xavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonun (2017) iqtisodiy xavfsizlikni milliy xavfsizlik tizimining tarkibiy qismi sifatida belgilaydi<sup>7</sup>.

Shuningdek, bojxona kodekslari, valyuta tartib-taomillariga oid hujjatlar, strategik sohalarida davlat manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan normativ hujjatlar ham muhim o‘rin tutadi.

### 3. Strategik dasturlar va milliy xavfsizlik konsepsiyalari

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/docs/-6445145>

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni, 26.05.2000 yildagi 77-II-son <https://lex.uz/docs/-67345>

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, 25.12.2019 yildagi O‘RQ-598-son <https://lex.uz/uz/docs/-4664142>

<sup>7</sup> [https://www.akorda.kz/ru/security\\_council/national\\_security/zakon-respubliki-kazahstan-o-nacionalnoy-bezopasnosti-respubliki-kazahstan](https://www.akorda.kz/ru/security_council/national_security/zakon-respubliki-kazahstan-o-nacionalnoy-bezopasnosti-respubliki-kazahstan)



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20<sup>th</sup> June 2025

Tashqi iqtisodiy xavfsizlikni huquqiy jihatdan mustahkamlovchi muhim hujjatlar qatoriga davlat taraqqiyot strategiyalari va milliy xavfsizlik konsepsiyalari ham kiradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi”da xalqaro savdo aloqalarining diversifikatsiyasi, iqtisodiyotni tashqi xatarlardan himoya qilish va investitsiya xavfsizligini ta‘minlash ustuvor yo‘nalish sifatida qayd etilgan<sup>8</sup>.

Qirg‘iziston Respublikasining “Milliy taraqqiyot strategiyasi – 2040”<sup>9</sup>da esa tashqi qarz darajasining nazorat ostida ushlab turilishi, xalqaro iqtisodiy aloqalarning manfaatlar nuqtai nazaridan takomillashtirilishi vazifa etib qo‘yilgan.

#### 4. Xalqaro huquqiy majburiyatlar

Markaziy Osiyo davlatlari tashqi iqtisodiy xavfsizlikni nafaqat milliy qonunchilik, balki xalqaro-huquqiy majburiyatlar orqali ham ta‘minlab kelmoqda. Xususan, ularning Jahon savdo tashkiloti (WTO), Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF), Jahon banki (WB), Osiyo taraqqiyot banki (ADB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) kabi tuzilmalar bilan imzolagan bitimlari bu borada muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, davlatlar o‘rtasidagi ikki tomonlama va ko‘p tomonlama investitsiya bitimlari, erkin savdo zonalari to‘g‘risidagi shartnomalar ham tashqi iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlovchi vositalardan hisoblanadi. Bu shartnomalar investorlar huquqlarini himoya qilish, investitsiya nizolarini hal qilish tartiblarini belgilash va davlat manfaatlarini muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash amaliyoti. Tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash masalasi Markaziy Osiyo davlatlari uchun tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mintaqa mamlakatlari bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida xalqaro iqtisodiy aloqalarga faol integratsiyalashmoqda, bu esa ularni global iqtisodiy o‘zgarishlarga nisbatan sezgir qiladi. Shu sababli, har bir mamlakat tashqi iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash borasida o‘ziga xos amaliy choralarni ishlab chiqmoqda va hayotga tatbiq etmoqda. Quyida mintaqa mamlakatlarining ushbu yo‘nalishdagi real amaliy tajribalari yoritiladi.

#### O‘zbekiston Respublikasining tajribasi

<sup>8</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

<sup>9</sup> <https://mineconom.gov.kg/storage/directs/documents/209/15421950795bec078718fff.pdf>



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: [econfséries.com](http://econfséries.com)

20<sup>th</sup> June 2025

O‘zbekiston tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashda tizimli va kompleks yondashuvlarni qo‘llamoqda. 2017-yildan boshlab boshlangan iqtisodiy islohotlar doirasida valyuta siyosati liberallashtirildi, bu esa tashqi savdo operatsiyalarini soddalashtirish va investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qildi.

Shuningdek, eksport tarkibini diversifikatsiyalash, xomashyo eksportiga bog‘liqlikni kamaytirish va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirish strategiyasi ishlab chiqildi. “Erkin iqtisodiy zonalar” (FEZ) tizimi orqali xorijiy investorlar uchun soliq va boj imtiyozlari yaratilgan<sup>10</sup>.

2022–2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi”da tashqi iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan<sup>11</sup>. Huquqiy jihatdan esa xorijiy investitsiyalarni himoya qiluvchi xalqaro arbitraj mexanizmlaridan foydalanish kuchaytirilmoqda.

**Qozog‘iston Respublikasining tajribasi**

Qozog‘iston tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashda yirik infratuzilmaviy loyihalarga tayanmoqda. “Nurly Zhol” milliy dasturi asosida transport-logistika infratuzilmasi rivojlantirilib, eksport yo‘llari diversifikatsiya qilinmoqda. Shuningdek, 2018-yilda ishga tushirilgan Astana xalqaro moliya markazi (AIFC) mintaqadagi moliyaviy xavfsizlik va investitsion muhitni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Qozog‘iston “Investitsiyalarni himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun orqali strategik tarmoqlardagi xorijiy investitsiyalarni qat’iy nazorat qiladi. Shuningdek, energetik resurslarga qaramlikni kamaytirish uchun sanoat tarmoqlari va xizmat ko‘rsatish sohasiga faol sarmoya kiritilmoqda.

**Qirg‘iziston Respublikasining amaliyoti**

Qirg‘iziston iqtisodiyoti asosan qishloq xo‘jaligi, oltin qazib olish va xizmat ko‘rsatish sohasiga tayangan. Mamlakat tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashda asosan Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YeOII) bilan integratsiya orqali regional bozorlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

<sup>10</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuni, 17.02.2020 yildagi O‘RQ-604-son <https://lex.uz/docs/-4737511>

<sup>11</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20<sup>th</sup> June 2025

Tashqi moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlash maqsadida davlat tashqi qarz portfeli diversifikatsiya qilinmoqda. “Qirg‘iziston-2040” milliy taraqqiyot strategiyasida tashqi yordam va kreditlarning maqsadli va samarali yo‘naltirilishi, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash vazifasi belgilangan<sup>12</sup>.

**Tojikiston Respublikasining tajribasi**

Tojikiston tashqi iqtisodiy xavfsizlikka sezilarli darajada bog‘liq bo‘lgan mamlakat hisoblanadi. Tashqi savdo va investitsiyalar borasida Xitoy, Rossiya, Eron va Osiyo Taraqqiyot Banki bilan faol hamkorlik olib borilmoqda.

Mamlakat elektr energiyasi eksportini strategik yo‘nalish sifatida belgilagan va CASA-1000 loyihasi orqali Janubiy Osiyo mamlakatlariga elektr eksport qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shuningdek, moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlash maqsadida oltin-valyuta zaxiralari oshirilmoqda, davlat tashqi qarzigga bo‘lgan qaramlikni kamaytirish choralar ko‘rilmoqda.

**Turkmaniston Respublikasining amaliyoti**

Turkmaniston tashqi iqtisodiy xavfsizlik masalasida nisbatan yopiq va suveren yondashuvga tayanadi. Mamlakat tashqi iqtisodiyotining asosiy qismi tabiiy gaz eksportiga bog‘liq. Xitoy, Rossiya va Eronga gaz yetkazib berish orqali barqaror valyuta tushumlari ta‘minlanmoqda.

Shuningdek, “G‘arb–Sharq” gaz quvurlari orqali yangi bozorlarga chiqish harakatlari amalga oshirilmoqda. Investitsiyalar borasida esa ehtiyotkorlik siyosati yuritiladi, davlat ishtirokidagi korxonalar asosiy iqtisodiy faoliyatni olib boradi.

Tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashdagi muammolar

1. Yuridik mexanizmlarning yetarlicha rivojlanmaganligi. Markaziy Osiyo mamlakatlarida tashqi iqtisodiy xavfsizlikni tartibga soluvchi maxsus qonunchilik bazasi ko‘pincha umumiy huquqiy normalar bilan cheklanadi. Bu esa tahdidlarni aniqlash, monitoring qilish, ularga tezkor javob qaytarish va barham berish imkoniyatlarini cheklaydi.

2. Investitsiya muhofazasining zaifligi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish tashqi iqtisodiy xavfsizlikning muhim omili bo‘lishiga qaramay, ularni huquqiy jihatdan

<sup>12</sup> <https://mineconom.gov.kg/storage/directs/documents/209/15421950795bec078718fff.pdf>



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20<sup>th</sup> June 2025

himoya qilish tizimi zaif. Investorlarning huquqlari, ayniqsa nizolar yuzaga kelgan hollarda, yetarli darajada kafolatlanmagan. Xalqaro arbitraj sudlaridagi ishtirok va mahalliy sud tizimi samaradorligi ham savol ostida qolmoqda.

3. Tashqi qarz va moliyaviy qaramlik. Tashqi iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi yana bir muhim omil – tashqi qarzning ortib borishi va xalqaro moliya institutlariga qaramlikdir. Bu holat O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston kabi mamlakatlarda alohida dolzarblikka ega. Tashqi qarzning oshishi esa mamlakatlar moliyaviy mustaqilligiga putur yetkazadi.

4. Bojxona va savdo siyosatidagi nomuvofiqliklar. Mintaqadagi davlatlar o‘rtasidagi bojxona va savdo qonunchiligi uyg‘unlashtirilmagan. Bu esa noqonuniy savdo, kontrabanda va iqtisodiy jinoyatlar xavfini oshiradi. Xususan, Qirg‘iziston va Qozog‘iston o‘rtasida bir necha bor bojxona nizolari yuzaga kelgan.

5. Yashirin iqtisodiyot va korrupsiya. Yashirin iqtisodiyot hajmining kattaligi va korrupsiya darajasining yuqoriligi iqtisodiy xavfsizlikka tahdid solmoqda. Bu holatlar moliyaviy oqimlarning shaffofligini ta‘minlash, soliq tushumlarini boshqarish va davlat siyosatini samarali amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi.

Xalqaro tajriba va ilg‘or yondashuvlar

Yevropa Ittifoqi davlatlari tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash uchun yagona iqtisodiy makon, bojxona ittifoqi va umumiy siyosat yuritadi. Bu esa a‘zolar o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytiradi va tashqi tahdidlarga qarshi birgalikda choralar ko‘rishga imkon beradi.

Xitoy esa tashqi iqtisodiy xavfsizlikni milliy xavfsizlik strategiyasining asosiy yo‘nalishi sifatida ko‘radi. 2021-yilda qabul qilingan "Xavfsizlikni kompleks ta‘minlash kontseptsiyasi"da iqtisodiy sohadagi tahdidlarga qarshi qator huquqiy choralar, jumladan, strategik tarmoqlarda chet el investitsiyalariga cheklovlar joriy qilingan.

AQShda xorijiy investitsiyalarni nazorat qilish bo‘yicha maxsus mexanizm – CFIUS (Committee on Foreign Investment in the United States) mavjud<sup>13</sup>. Bu organ xorijiy investitsiyalarning milliy xavfsizlikka tahdidi bor-yo‘qligini baholab, ular bo‘yicha qarorlar qabul qiladi.

<sup>13</sup> The Committee on Foreign Investment in the United States (CFIUS) <https://home.treasury.gov/policy-issues/international/the-committee-on-foreign-investment-in-the-united-states-cfius>



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: [econferences.com](http://econferences.com)

20<sup>th</sup> June 2025

### Takliflar

Birinchiidan, maxsus qonunlarni qabul qilish: Har bir Markaziy Osiyo mamlakatida tashqi iqtisodiy xavfsizlikka oid maxsus qonunlar ishlab chiqilishi va qabul qilinishi zarur. Bu qonunlar tahdidlarni aniqlash, ularni monitoring qilish va javob choralarini belgilash mexanizmlarini o'z ichiga olishi kerak.

Ikkinchiidan, iqtisodiy xavfsizlik strategiyalarini yangilash: Har bir davlat iqtisodiy xavfsizlik strategiyasini yangilab, unda iqtisodiy xavfsizlik, xususan tashqi xavfsizlikni asosiy yo'nalish sifatida belgilashi zarur.

Uchinchiidan, investitsiya muhofazasini kuchaytirish: Xorijiy investorlarga huquqiy kafolatlar berish, ularning huquqlarini himoya qiluvchi institutlar faoliyatini kuchaytirish lozim. Bu borada xalqaro arbitraj mexanizmlaridan foydalanish samarali bo'lishi mumkin.

To'rtinchiidan, bozorlardagi shaffoflikni oshirish: Soliq va bojxona tizimlarida raqamlashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish choralarini kuchaytirish tashqi iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Beshinchiidan, mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish: Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida savdo va bojxona qonunchiligini uyg'unlashtirish, axborot almashinuvi tizimlarini yaratish va umumiy xavfsizlik strategiyalarini ishlab chiqish zarur.

Oltinchiidan, monitoring tizimlarini yaratish: Tashqi iqtisodiy tahdidlarni aniqlash, baholash va monitoring qilish bo'yicha mustaqil va zamonaviy institutlar tashkil etilishi lozim.

### Xulosa

Markaziy Osiyo mamlakatlari, globallashtirish jarayonida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalasiga befarq emas. Tashqi iqtisodiy xavfsizlik, davlatning tashqi iqtisodiy aloqalarda o'z manfaatlarini himoya qilish, iqtisodiy suverenitetini saqlab qolish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Mintaqadagi davlatlar ushbu xavfsizlikni huquqiy jihatdan ta'minlash borasida turli strategiyalarni amalga oshirgan bo'lsalar-da, ularning qonunchilik bazasi va amaliy mexanizmlarini takomillashtirishga ehtiyoj mavjud.

Tashqi iqtisodiy xavfsizlikni huquqiy ta'minlashning asosiy muammolari orasida normativ-huquqiy hujjatlarning to'liq shakllanmaganligi, xalqaro iqtisodiy aloqalarda milliy manfaatlarining yetarlicha himoya qilinmasligi va investitsiyalarni



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: [econferences.com](http://econferences.com)

20<sup>th</sup> June 2025

huquqiy himoya qilishning sustligi mavjud. Shuningdek, mintaqaviy hamkorlikning sust rivojlanishi va tashqi qarz siyosatining noaniqligi ham Markaziy Osiyo davlatlari uchun dolzarb muammolarni tashkil etmoqda.

Biroq, mamlakatlar iqtisodiy xavfsizlikni huquqiy jihatdan mustahkamlashda ijobiy natijalarga erishish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirishlari kerak.

Jumladan:

- tashqi iqtisodiy xavfsizlik tushunchasini qonunchilikda alohida belgilash;
- investitsiyaviy va tashqi savdo tizimini yanada isloh qilish;
- tashqi qarz siyosatini qonuniy nazoratga olish;
- mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan huquqiy mexanizmlar joriy etish zarur.

Shu bilan birga, Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash faqat milliy manfaatlarni himoya qilishdan iborat emas, balki mintaqaviy va global miqyosda barqaror rivojlanishni ta‘minlashga xizmat qiladi. Buning uchun huquqiy islohotlarni izchil amalga oshirib, xalqaro tajriba va standartlarni inobatga olish, hamda iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlovchi mexanizmlarni mustahkamlash zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, 25.12.2019 yildagi O‘RQ-598-son <https://lex.uz/uz/docs/-4664142>
3. O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni, 26.05.2000 yildagi 77-II-son <https://lex.uz/docs/-67345>
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/docs/-6445145>
5. The Committee on Foreign Investment in the United States (CFIUS) <https://home.treasury.gov/policy-issues/international/the-committee-on-foreign-investment-in-the-united-states-cfius>



# E CONF SERIES



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20<sup>th</sup> June 2025

6. O‘zbekiston Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuni, 17.02.2020 yildagi O‘RQ-604-son <https://lex.uz/docs/-4737511>
7. Qozog‘iston “Investitsiyalarni himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni
8. Qirg‘iziston Respublikasining “Milliy taraqqiyot strategiyasi – 2040”
9. Qozog‘iston “Milliy xavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni

### Foydalanilgan saytlar:

1. <https://mineconom.gov.kg/storage/directs/documents/209/15421950795bec078718fff.pdf>
2. [https://www.akorda.kz/ru/security\\_council/national\\_security/zakon-respubliki-kazahstan-o-nacionalnoy-bezopasnosti-respubliki-kazahstan](https://www.akorda.kz/ru/security_council/national_security/zakon-respubliki-kazahstan-o-nacionalnoy-bezopasnosti-respubliki-kazahstan)
3. [https://www.weforum.org/stories/2018/07/what-is-the-wto/?gad\\_source=1&gad\\_campaignid=22234048793&gbraid=0AAAAAoVy5F7rxvXVDBnSFeaubjMf1P5k&gclid=Cj0KCQjw2ZfABhDBARIsAHFTxGyxhCnAId0s9WAy9r3f-DuznpDcO50TDD8mxQPsbI9bGAqx317uxAlaAq\\_ZEALw\\_wcB](https://www.weforum.org/stories/2018/07/what-is-the-wto/?gad_source=1&gad_campaignid=22234048793&gbraid=0AAAAAoVy5F7rxvXVDBnSFeaubjMf1P5k&gclid=Cj0KCQjw2ZfABhDBARIsAHFTxGyxhCnAId0s9WAy9r3f-DuznpDcO50TDD8mxQPsbI9bGAqx317uxAlaAq_ZEALw_wcB)
4. <https://www.imf.org/en/Home>
5. <https://www.wto.org/>
6. The Committee on Foreign Investment in the United States (CFIUS) <https://home.treasury.gov/policy-issues/international/the-committee-on-foreign-investment-in-the-united-states-cfius>
7. <https://mineconom.gov.kg/storage/directs/documents/209/15421950795bec078718fff.pdf>